



Received: August 5, 2025
Accepted: September 22, 2025
Available online: September 25, 2025

Halim Saidov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

BEHBUDIY FENOMENINING JADIDLIK HARAKATIGA TA'SIRI

ANNOTATSIYA

O'zbek xalqining ulug' farzandi, XX asrning dastlabki yigirma yilligida Turkistonning ozodligi uchun kurashgan alloma, jadidlik harakatining asoschisi va yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning faqat ma'rifatparvarlik borasida amalga oshirgan ishlari emas, balki uning siyosiy qarashlari, amalga oshirgan yangiliklari e'tiborga molik. Mazkur maqolada Behbudiyning sobiq sho'rolar davri va O'zbekiston mustaqilligining dastlabki chorak asri fursatida aytilmagan siyosiy ishlardagi ishtirokini Behbudiy tartib bergan maktab darsliklari, yozgan maqolalari, "Oq yelpog'ichli chinli xotun" hikoyasi, "Padarkush" dramasi, "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali noshiri hamda muharriri sifatidagi fidoyiliklari, chor Rossiyasi davrida "Turkistonning madaniy muxtoriyati" dasturi, Muvaqqat hukumati fursatidagi qizg'in siyosiy faoliyati, Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishidagi o'rni, bolsheviklar hokimiyatni egallagach xalq koriga yarash uchun qilgan ezguliklari rakursida aniq faktlar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: jadidlik harakati, ma'rifatparvarlik, siyosiy qarash, mustaqillik, siyosiy faoliyat, ommaviy axborot vositasi, millat saviyasi, vatanparvarlik.

KIRISH

Yuz yillik haqiqat tiklanganiga besh yil to'ldi. Bu voqea O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi orqali tarixda qoldi: "...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alasini

Halim Saidov

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
University of Journalism and Mass
Communications of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: halimsayid626@gmail.com
ORCID iD: 0009-0000-6753-8612

THE INFLUENCE OF THE BEHBUDI PHENOMENON ON THE JADID MOVEMENT

ABSTRACT

Mahmudkhoja Behbudi, a prominent Uzbek enlightener who fought for the liberation of Turkistan in the first two decades of the 20th century, and a founder and leader of the Jadid movement, is noteworthy not only for his innovations in the field of enlightenment but also for his political views and practical activities. This article presents evidence – based on concrete facts – regarding Behbudi's political involvement, which remained largely unspoken during the Soviet period and the first quarter-century of Uzbekistan's independence. It analyzes his contributions through the school textbooks he compiled, his articles, the short story *The Chinese Woman with the White Fan*, the drama *Patricide*, and his dedicated work as the publisher and editor of *Samarkand* Newspaper and Journal of *Oyina*. It also examines his efforts under Tsarist Russia with the "Cultural Autonomy of Turkistan" program, his intense political activity during the Provisional Government period, his role in the proclamation of the Turkistan Autonomy, and his benevolent efforts to serve the people after the Bolsheviks came to power.

Key words: jadid movement, enlightenment, political view, independence, political activity, mass media, national consciousness, patriotism.

baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi” [Mirziyoyev, 2020].

Haqiqatan ham 2020-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi keng nishonlandi. Prezident farmoni bilan alloma O‘zbekistonning yuksak mukofoti “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga ulug‘ ma‘rifatparvarga haykal o‘rnatildi. Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko‘chasida Behbudiy uy-muzeyi tashkil qilindi [Saidov, 2024; 4].

Ommaviy axborot vositalarida, katta tadbirlarda jadidlar, xususan, jadidchilik harakati karvonboshisi Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar berila boshlandi. Buning asosiy sababi 2024-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarori edi va u alloma hayoti va faoliyatini o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Qaror nomlanishining dastlabki qismidayoq Behbudiy faoliyatiga “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi” degan e‘tirof berilishi katta voqea bo‘ldi. Asoschisi degan so‘zning mag‘zini chaqishdan avval harakat atamasining tagzaminida yotgan g‘oya xususida to‘xtalamiz. Xo‘sh, jadidlik harakatining mohiyatida qanday ma‘nolar yashirin? Nega shu paytgacha uning faqatgina ma‘rifiy harakat ekanligiga urg‘u berilgan? Bu kabi savollarga javob berish uchun bir asrdan ziyod bo‘lgan davrga, avvalo, chor Rossiyasining Turkistonni mustamlakaga aylantirishi va ellik yil o‘tgach esa bolsheviklarning hokimiyatga kelishi fursatlariga o‘zgacha nazar bilan qarashga to‘g‘ri keladi.

ASOSIY QISM

Birinchi navbatda jadid (*arabcha* – yangi) atamasi zamiridagi ma‘nolarga e‘tibor qaratamiz [Saidov, 2025a]. Albatta, olimlarimiz aytgan ma‘rifat, xususan, ta‘lim berishning yangi usulini joriy qilish degan g‘oyani inkor qilishdan yiroqmiz. Lekin bu fikr yangicha harakatning asl mag‘zi emas. Asosiy anglashilmovchilik ham jadid istilohining faqat ta‘limdagi yangilik mazmuni bilan kifoyalanishida deb hisoblashdan kelib chiqqan. Buning sabablari shundaki, milliy istiqloq g‘oyasi aks etgan har qanday harakatlar va ularning targ‘iboti chor Rossiyasi davrida ham, bolsheviklar zamonida ham nafaqat qoralangan, balki qamog‘-u qatag‘onlar bilan jazolangan.

Jadidlar yaratgan yangi o‘qitish tizimiga qarshilik qilganlar “qadimchilar” deb atalgan. Xo‘sh, qadimchilik harakatmidi? Ularning nizomi yoki shunga o‘xshash dasturi bo‘lganmi? O‘sha davr gazeta-jurnal va arxiv materiallari ularning ko‘rinmas kuchlar tomonidan yollangan fitnachilar ekanligini ko‘rsatmoqda. Birgina misol: Samarqand masjidlaridan birida chor hukumati tayinlagan imom tomonidan jadidlar, xususan, Behbudiy kofir deya e‘lon qilinganini juma namoziga borgan ko‘pchilik eshitadi. Islom arkonlarini mukammal bilgan mufti, maktablar uchun “Islom tarixi” darsligini yozgan olim Mahmudxo‘ja Behbudiyga bu gap yetib boradi, albatta. Behbudiy o‘sha imom huzuriga borib qo‘ygan aybloviga asos so‘raydi. “Ko‘rinmas kuch” buyurtmasini bajargan dindor esa fikrini asoslash u yoqda tursin “bu gapni

aytmaganman”, deb turib oladi [Behbudiy, 1914a]. Bu kabi misollardan ko‘rinadiki, jadidlarga qarshi kimlardir atay, kimlardir ko‘r-ko‘rona qarshilik qilgan. Biroq ular dastur tuzib harakatlarini tashkil etishmagan.

Jadidlarning harakat nizomi bo‘lganmi, degan savol paydo bo‘ladi, albatta. Chor hukumati mustamlakasidagi xalqlar siyosiy partiya tuzish u yoqda tursin, siyosatga aralashgan kishilarni avval tavba qildirishgan va maxsus xizmat nazoratiga olgan. Maqolamiz qahramoni Mahmudxo‘ja Behbudiy ana shu jarayonni boshidan o‘tkazgan. U 1908-yili “Ta’rix va jug‘rofiya” sarlavhali felyetonini yozgach, aytgan so‘zlari uchun izoh, to‘g‘rirog‘i tavba talab qilishgan. Behbudiy tavba qilmasa-da, “Russiyani kim va qandayligini bilmaydurg‘on nodonlardan emasmiz va ammo “Ta’rix va jug‘rofiya” unvonlik maqolamiz ta’rix va jug‘rofiya o‘qumoqni diniy jilva etdirmoq va yoinki sarf ilmiy va voqeiy bir maqola edi. Siyosiy va taassubiy emas edi...” [Behbudiy, 1908a]. Behbudiyga birov “siyosatga aralashma, so‘zingni qaytib ol” demaganida, u “Tavzeh” sarlavhali izoh shart bo‘lmagan maqolasida yuqoridagi fikrini yozgan bo‘larmidi?

Lekin jadidlar birlashish, fikr aytish va hamfikrlarni to‘plab, harakatga aylantirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshira olganlar. Masalan, gazeta va jurnal, kitoblarni chop etganlar, yozganlarini gap-u gashtaklarda, mehmonxonalarda o‘qishgan. Shu bilan birga, imkoniyat tug‘ilganda sirtidan siyosatga aralashmagan holda nizom va dasturlar tuzishgan. Rossiyadagi 1905-yil taloto‘plari natijasida chor hukumati avtokratik zanjirlarni biroz bo‘shatishga majbur bo‘ladi. Ana shu imkoniyatdan foydalanib, jadidlar, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘sha paytdagi Turkiston xalqlari uchun madaniy davlat – madaniy muxtoriyat talab qilgan. Uning 1907-yili Rossiya dumasiga yoki Musulmonlar fraksiyasiga topshirgan “Turkiston madaniy muxtoriyati” deb nomlangan loyihasini o‘qib, moziydagi muhim voqeliklarga sababchi bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlardan xabardor bo‘lish mumkin.

Bu yirik loyiha uchun Behbudiy juda ko‘p izlangan, o‘qigan, masalani tahlil qilgan, fikrlagan, g‘oyadoshlari bilan maslahatlashgan. Loyihada madaniy muxtoriyat deyilgani bilan hujjatda siyosat-u iqtisod ham, din-u huquq ham, qisqasi – Turkiston xalqlari hayoti bilan bog‘liq barcha masalalar o‘rin olgan.

Loyihada qayd etilgan moddalar mazmunidan anglashiladiki, madaniy muxtoriyat asosida siyosiy muxtoriyat masalasi ham turibdi. Masalan, uning bir moddasida shunday yozilgan: “Turkistonga ko‘chmanchilarning olib kirilishi to‘xtatilsin”. Bu o‘lkani keng miqyosda ruslashtirish siyosatiga qarshi to‘g‘ridan to‘g‘ri e‘tiroz hisoblanadi.

Yoki boshqa bandida “Ovrupoyi Rusiya musulmonlaridan ziyodaroq avtonomiyani Turkistong‘a berilmog‘i lozimdur”, deydi va bu fikrni “turkistonlilar hanuz doxilan o‘zini o‘zi idora edar va Ovrupoyi Rusiyadagi qardoshlarimizdan ixtiyorlidurlar”, deb asoslaydi. Turkiston nisbatan ozodroqdir, demoqda Behbudiy. Bu fikri uchun mustamlakachilar nega unga e‘tiroz bildira olishmagan, nega uni jazolashmagan? Negaki, Buxoro amirligi, Xiva xonligi qog‘ozda mustaqil davlatlar hisoblangan. Aslida unday emasligini Behbudiy bilsa-da, vaziyatdan huquqiy jihatdan ziyraklik bilan foydalangan.

Loyihadagi “Turkiston maktablari va madrasalari hukumat nazoratidan ozod bo‘lsun” talabini olaylik. Maktab va madrasalarning chor hukumatini nazoratida bo‘lganligi haqidagi hujjatlar arxivlarda o‘rganilishini kutmoqda. Mustamlakachilar mahalliy xalqning savodli bo‘lishiga mutlaqo qarshi bo‘lishgan. Masalan, ta’lim muassasasiga mudarrislar tayinlashda mahalliy xalq orasidan chiqqan bilimli, vatanparvarlarga emas, balki poraxo‘r, kaltabin, chalamullalarga va mustamlakachining har qanday topshirig‘ini ortig‘i bilan bajaradigan nusxalarga e’tibor qaratilgan. Yuqorida tilga olganimiz – tarixga “qadimchilar” nomi bilan kirgan va jadid maktablariga qarshi hujumlar aynan ana shu “tayinlangan”lar tomonidan amalga oshirilgan. Qolaversa, eski maktablarda bolaning umrini bekorga o‘tkazadigan tartiblar, o‘qitiladigan darslar mazmuniga ham mustamlakachilar ana shu manqurt gumashtalari vositasida aralashgan. Masalan, geografiya, tarix, aniq fanlar ta’lim dasturiga kiritilmasdan, bolalar yoshiga mos bo‘lmagan adabiyotlar o‘qitilgan. Bitiruvchilardan xalqning koriga yaraydigan yaratuvchi mutaxassis emas, bu dunyoning o‘tkinchiligini barvaqt tan olib, fikrlamasdan, o‘z ustida ishlamay, eplasa maishatga beriladigan qultabiat yetishtirilgan. Bu haqda Behbudiy keyinroq “Najot” gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonidagi maqolasida shunday so‘zlarni yozadi: “Missionerlar tarafidan va yoinki bizni yo‘q va nobud bo‘lishimizni va shariati muqaddasimizni hukmdan qolishini istaydurgon eski va musta’bid hukumat odamlari tarafidan shunday zakunlar chiqardiki, masalan, “har bir 25 yashar turkistonlilar qozi va volostnoy bo‘lishi mumkindur”, degan zakun qo‘yildi... Bu zakun bizga savodsiz va ilmsiz qozilarni oqcha va rishva (pora – H.S.) ila saylanmog‘iga yordam etdi. Eski zolim hukumatning ishi va din buzguvchi odamlari va missionerlari madrasalarimiz va maktablarimiz to‘g‘risida ham bizni hayvoniyatga va jaholat maydoniga ham yo‘q va mahv bo‘lish chuquriga sudraydurgon zakunlar vaze’ etdilar. Mudarrisni hech nima bilmaydurgon yosh talabalarni madrasaga saylab qo‘yish tadbirlarini zakun qilib chiqordilar... Mudarris na ta’lim etar, na boshqa-boshqa ishlarga nazorat qilur edi. Natijada ulamo ozaydi. Axloq buzuldi, ulamo isnodig‘a johil va xoinlar, sof savodsiz kishilar qozi bo‘ldi. Tadrir va aftodayi ojiz kishilar mufti mudarris bo‘ldi. Bir mulla ham qozi va ham mudarris va ham oqsoqol bo‘lub, talaba, mirofa’chi va aholi ishlarini saktaga uchratdi. Boshqa tarafga qarasang qozi va mudarrislik uchun iste’dodnomasi bo‘lgan ulamomiz och yuradur. Oh, zolim hukumat va missionerlar bizg‘a nalar qildilar!..”

Aslida, Behbudiy millatni yo‘q qilishga, mangu qullikda saqlashga mo‘ljallangan katta fitnaga qarshi ushbu bandni hujjatga kiritgan edi.

Loyihadagi “Rus harfi musulmon millatig‘a jabriy bo‘lmasun” degan talabni tahlil qilib ko‘ring. Bu harf oqibatida qancha millatlar o‘z yeridan, tarixidan mosuvo bo‘lgani misolida Behbudiy talabining naqadar to‘g‘ri ekanligini bugun ziyoli kishilar yaxshi anglaydilar, albatta.

“Nahr va katta va kichik ariq suvlarini taqsimi aholini ittifoqi va mashvarati ila bo‘lsun. (Qayd: hozirgi rus mirobini taqsimi kayfiyasi aholiga ko‘p zarar keltiradur)”. Holbuki, Turkiston tog‘laridan boshlab Orol dengizigacha bo‘lgan masofada suvni to‘g‘ri sarflash bo‘yicha zaminimizda asrlar davomida katta tajriba to‘plangan va buni har bir davrning donishlari bilishgan. Qolaversa, bugun suv masalasida istalgan

mintaqada fitna, janjal chiqarish mumkinligini anglab turibmiz. Lekin o'sha paytdagi axborotsizlik muhitida mustamlakachi oldiga qo'yilgan bu talabni qanday tafakkurdagi inson bitganligini bir tasavvur qilib ko'ring.

Umuman, hujjatdagi har bir bandni chuqur tahlil qilish mumkin, ular sirdan madaniy ko'rinsa-da, asosan siyosiy talablardir va shu bois u chor hukumati ma'murlarining g'aladonida qolib ketgan, jamoatchilikdan yashirilgan. Murojaati e'tiborsiz qoldirilganini anglagan Behbudiy uning mazmunini keyinroq gazetada maqola tarzida chop ettirgan. Maqola bilan mazkur hujjat qiyoslanganda esa "TVG"ning missioner muharriri N.Ostroumovning qaychisiga yo'liqqani ma'lum bo'ldi.

Behbudiy va jadidlar millatning umumiy saviyasini ko'tarishni taraqqiyotning asosiy omili deb bilishgan va bu jihatdan to'g'ri yo'l tanlashgan. Lekin ularning ezgu niyatlarini sezgan o'ta ayyor mustamlakachilar turli vositalar orqali to'sqinlik qilgan. Shu bois jadid ziyolilari ma'rifat bayrog'i ostida harakat qilishgan. Buni Behbudiy faoliyati misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning quyidagi fikrlari diqqatga sazavor: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, ilm va fandan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur". ..."Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobe'dur? Buning oxiri xarobdur", deb yozadi u [Behbudiy, 1913a].

Behbudiy dunyoqarashining kengayishida chor Rossiyasi hududida jadidchilik harakatiga asos solgan mashhur ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprali muharrirligida chop etilgan "Tarjimon" gazetasining o'rni alohida ekanligini Behbudiy ko'p bora ta'kidlagan. Bu gazetani o'qib, "TVG" bilan qiyoslab, makkor missioner muharrir N.Ostroumovning Hoji Muin tili bilan aytganda "musulmonlarni ag'fol etish maqsadi bilan yozaturg'on so'zlarini tushuna boshlaydi va o'zig'a uchrag'on yor-u do'stlarini mustabid hukumatning buzuq maqsadidan ogohlanturadi" [Muin, 1923].

Behbudiy 1899-yili haj safariga o'tlanadi. "1318-sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kafkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi" [Behbudiy, 1914b].

Tadqiqotchilar Behbudiyning safariga uch yashar to'ng'ich o'g'lining nobud bo'lganini sabab qilib ko'rsatadilar. Aslida uning safaridan boshqa maqsadlar ham mavjud edi. Avvalo, 1898-yili Andijondagi Dukchi eshon qo'zg'oloni oqibati Mahmudxo'jani chuqur qayg'uga botiradi. Behbudiy vujudga kelgan ahvolni har tomonlama tahlil etadi, maxsus tayyorgarliksiz tish-tirnog'igacha qurollangan zulmkor qo'lidan o'ttiz yil davomida ham ma'nan, ham moddiy jihatdan och-nahor qulga aylantirilgan olomon bilan ozodlikka chiqish mumkin emasligini anglab yetadi. Yevropaning iskanjasida qolgan boshqa sharq davlatlari ahvolidan xabardor bo'lish, ularning ozodlik yo'lidagi harakatlarini o'rganish safarning asosiy sababi edi.

Biz Mahmudxo'ja Behbudiyning halok bo'lgani e'lon qilingan ilk maqolalardan fikrimizga asos topdik: "1318-nchi sanayi hijriyada Hijozg'a safar qilib, Istanbul va Arabistonni ziyorat va haji islomni ado qilg'on. Hijoz safari Mahmudxo'jag'a ko'b bilmayturgon narsalarini o'rgatgan, ko'b ibratlar olg'on. Borish-kelishda har sinf

kishilar bilan ko'rushgan va fikr olishgan. Mahmudxo'ja Hijoz safaridan so'ngra go'yo dunyog'a yangi kelgandek bo'lub, Turkistonning ilmiy va ijtimoiy ishlarig'a boshqa ko'z, boshqa bir o'lchak bilan qarag'on" [Ayniy, 1920].

"Dunyog'a yangi kelgandek" o'xshatishi har bir hojiga munosib ko'rilishi mumkin, biroq "Turkistonning ilmiy va ijtimoiy ishlarig'a boshqa ko'z, boshqa bir o'lchak bilan qarag'on"ini barchaga birdek qo'llab bo'lmasligi isbot talab qilmaydi.

Alloma safardan qaytishda Misr va Istanbuldan turli gazetalar, yangi kitoblar olib keladi va uch yil mutolaa bilan mashg'ul bo'ladi. Hamfikrlari Hoji Baqo, Ho'qandboy Abduxoliq o'g'li hamda Badriddin soatchi bilan suhbat-u bahslar uyushtirib, fikr almashgani safdoshlar xotiralarida muhrlangan. Tadqiqotchilar e'tibor bermagan bu fursatda Behbudiy ozodlik uchun kurash yo'llarini qidirdi. Dunyo tarixini, Turkiston o'tmishini, uning eng yorqin sahifalarini varaqladi. Bobolarimizning dunyo ilmi, madaniyatiga qo'shgan hissasidan, ular qurib ketgan madrasa-yu minoralardan hayratlandi. O'z davrining ham diniy, ham dunyoviy ilmlarini puxta o'rgandi. Shu bilan birga, Amir Temur qurgan saltanat tanazzulini tahlil qildi. Dunyoda bo'layotgan voqea-hodisalar, jumladan, urushlar va ularning sababi, mohiyatini millat manfaati nuqtayi nazaridan tafakkur chig'irig'idan o'tkazdi. Ana shu mutolaa, bahslar, fikr almashuvlar natijasida xulosalar chiqarib, Turkistonni hurriyatga eltuvchi yo'l loyihalarini chizib chiqdi.

Avvalo, yosh avlodga tez fursatda savod o'rgatib, buyuk bobolar kimligini tanitib, shu bilan birga, yurt tanazzuli sababini tushuntirib, taraqqiyot yo'llarini ko'rsatish maqsadida ishni 1903-yili Samarqand shahri yaqinidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida ilg'or maktablar tashkil etishdan boshladi. Yangi maktablar uchun "Risolayi asbobi savod" (1904), "Risolayi jug'rofiyai umroniy" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy" (1905), "Muntahabi jug'rofiyayi umumiy" (1906), "Kitobat ul-atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kitoblarini yozib, chop ettiradi. Shu bilan birga, geografiya va tarix fanlari uchun xarita tayyorlab, bosmadan chiqaradi. Masalan, dunyoga mashhur bobolar, ulug' Turkiston tanazzuli, mustamlaka mohiyati, hurriyat g'oyalari haqidagi fikrlarini geografiya darsliklari mag'ziga singirdi.

Behbudiy jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib etishda matbuotdan unumli foydalanganini alohida ta'kidlash joiz. Ma'lumki, 1906-yildan 1907-yilgacha Toshkentda chop etilgan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" kabi dastlabki jadid gazetalar taqiqqa uchrab, mustamlakachi idoralar tomonidan qisqa fursatda yopilib ketadi. Ozodlik yo'lida fikr tarqatadigan nashr zaruratini his qilgan Behbudiy 1908-yildan gazeta ochish harakatini boshlaydi. Mustabid hokimiyat izn bermaydi, lekin tirishqoqlik bilan yo'l izlashda davom etadi va nihoyat, besh yillik qog'ozbozlig-u sarsongarchiliklar natijasida niyatiga erishadi. Behbudiyning zamondoshi Sadriddin Ayniy shunday xotirlaydi: "1908-nchi yildan o'z idorasinda biron gazeta chiqarmoq fikrig'a tushub, 1913-nchi yil aprel oyinda bu maqsadig'a yetishub "Samarqand" gazetasining bir necha raqamini chiqarishga muvaffaq bo'lg'on" [Ayniy, 1920]. Ulug' ma'rifatparvar Abdulla Avloniy esa "Samarqand" – "el-u xalqning ko'zini ochishga bois bo'ldi" [Saidov, 2000; 94], – deya e'tirof etgandi. "Samarqand" o'zidan avval

chiqqan nashrlardan farq qildi. Bunda Behbudiyning matbuot sohasidagi to'plagan tajribalari qo'l kelgan. Gazetaning o'zgachaligiga birinchi dalil shuki, o'zigacha hech bir nashr uch tilda chiqqan emas. Noshir va muharrir o'z maqolasida gazetani nega uch tilda chop etayotganini shunday izohlagan: "Samarqand" jaridasi o'zbekiy, forsiy va rusiy tillarida va Turkistonning o'rta shevasinda ta'sis etilib turib edi. Mundan maqsad shul ediki, Bahri Hazardan boshlab janubdagi Afg'oniston fasili, Amu nahri o'rtasindaki vase' arosig'a sokin turk va tojik birodarlarimizg'a bir qadar toqat xidmat etmak va alarni holig'a va ijobati asriya, vaqoyi' zamoniyada va Rossiya kulturi, ilmi, hunari va sanoatg'a oshino bo'lishlarig'a ojizona tashviq etmoqdin iborat edi. Maktab bo'lsun, madrasa bo'lsun, isloh va taraqqiysig'a yordam uchun xalqni da'vat etmoq edi. Fosid urf va botil rasmlarni, yomon odatlarni shar'an islohg'a ko'shish etmoq edi" [Behbudiy, 1913b].

O'z davrining taraqqiyparvari va donishmandi bo'lgan Behbudiy o'zigacha yopilib ketgan nashrlar tajribasidan xulosa qilib, gazetadagi siyosat bo'ladimi, iqtisod yoki xalqaro hayot mavzusi bo'ladimi, ularning barini ma'rifiy o'zanga burdi. Gazetada mustamlaka iskanjasida turib bo'lsa-da, millat bolalarini o'qitib, o'zligini tanitib, ma'rifat vositasi-la ozodlikka erishish g'oyasi targ'ib etildi. Bu yo'lda tahririyat jamoasi barcha turdagi axboriy, tahliliy, badiiy, hajviy materiallari bilan bu maslakka sobit turdi. Nashr ana shu jihatlari bilan el-u xalqning ko'zini ochdi.

Shu bilan birga, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston milliy matbuoti tarixida jurnalchilikka asos solgan noshir va muharrir sifatida mazkur nashrida jadidchilik g'oyalarini yanada fundamental tarzda yoritdi. "Oyina" jurnalini ochish uchun gazetaga ruxsat olish kabi besh yil yugur-yugur, qog'ozbozlik qilmagan bo'lsa-da, muayyan to'siqlarga duch keldi. Xususan, jurnal matbaa korxonasiga topshirilishidan ikki kun oldin chop etishga tayyorlangan materiallarni harbiy senzura ga keltirib, o'qitib, ruxsat olinishi muharrir zimmasiga yuklangani arxiv hujjatlarida saqlanmoqda.

Ehtiyot choralari shu darajada ko'rilgan bo'lsa-da, "Turkiston viloyatining gazetasi" jurnalda chop etilgan fikrlarga "qadimchilar" sifatida tarixda qolgan fitnachilar vositasida qarshi chiqishlar ko'paytirildi. "Oyina"da esa ularga muntazam qarshi fikrlar, munosabatlar berib borilardi. Masalan, "TVG"da mustamlakachilar tomonidan mahalliy xalqning "sartlar" deb atalishi va missioner N.Ostroumov asoslariga e'tiroz bildirilgan "Sart so'zi majhuldir" ("Oyina" jurnali, 1914-yil 22-, 23-, 24-, 26-sonlar) maqolasi fikrimizga dalildir.

"Oyina" haqiqatan ham o'z nomiga munosib ish olib bordi. Bu nashr tarixda bo'lib o'tgan va ayni paytda sodir bo'layotgan, shuningdek, kutilayotgan voqeahodisalarga o'z munosabatini muntazam bildirib turdi. Bir so'z bilan aytganda – millatga ko'zgu tutdi.

"Oyina" jurnalining millat rivojiga qo'shgan hissasini, bu borada mavjud muammolarni ko'rsata olgan muharrirning mahoratini ozodlik harakati nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, uning o'ziga xos xususiyatlarga egaligi namoyon bo'ladi. Jurnalning birinchi sonidan boshlangan Turkiston tarixiga, bobolar qoldirgan merosga e'tibor, buyuk davlat tanazzuli sabablari va uni qaytadan tiklash orzusi nashrning oxirgi sahifalarigacha sezilib turadi.

Jurnalning dovrug‘i yetti iqlimga yetmagan bo‘lsa-da, uni Rossiya va yaqin sharq davlatlari musulmonlari mutolaa qilishgani to‘g‘risida ma’lumot bizgacha yetib kelgan. Hoji Muin: “Oyina” Turkistondan boshqa Totoriston, Kofkoz, Afg‘oniston, Eron, Turkiya va Misrgacha tarqalar va har yerda suyib o‘qilur edi”, deydi. Abdulla Avloniy esa “bu jurnal “Oyina” chiqquncha chiqqon jurnallarning eng birinchi va yaxshisi edi”, deya baho bergan.

Ikki nashrning betakror muharriri millat ziyolilaridan maqola yozishlarini muntazam so‘rab turdi. Gazeta va jurnal taxlamlarini ko‘zdan kechirarkanmiz, unda bir taniqli mualliflar qatnashganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, “Samarqand” gazetasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin o‘z ijodlari bilan ishtirok etishgan bo‘lsa, “Oyina”da ularning safi Saidrizo Alizoda, Siddiqiy, Akobir Shomansur, Muhammad Sa‘id, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzoda va boshqa ziyolilar hisobiga kengaygan.

Shuningdek, bu ikki nashr publitsist Behbudiyning eng sara maqolalari chop etilganligi bilan ham ahamiyatli. “Tahsil oyi”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?”, “Ehtiyoji millat”, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Millatni kim isloh etar?”, “Favqulodda takfir”, “Bizni hollar va ishlar”, “Yoshlarg‘a murojaat”, “Tiyotr nadur?”, “Tanqid saralamoqdur”, “Turkiston tarixi kerak”, “Vatanparvarlik kerak”, “Ismoilbek hazratlari”, “Sherdor madrasasi”, “Ulug‘bek rasadxonasi”, “Sayohat xotiralari” kabi publitsistik asarlari shular jumlasidandir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millatni ozodlikka eltadigan yangi avlod tarbiyasida adabiyot alohida o‘rinda turadi, deb bilardi. U o‘zining “Oq yelpog‘ichli chinli xotun” hikoyasini (darvoqe, u o‘zbek tilidagi birinchi hikoya hisoblanadi) xo‘jandlik shoirga tuhfa qilganini mutaxassislar yaxshi biladilar. Shunday bo‘lsa-da, adibning so‘zlarini yana bir bor keltiramiz: “Ey qori, hikoyaning hosili mundin iboratdur. Adabiyoti jadidayi mustaqbala (kelajak zamon)mizg‘a raqamidin yodkori xayr iltifotig‘a yetsa, xo‘jandi shoir muhtaram Sayriy afandig‘a bir tuhfadur. Mutolaasig‘a tanzil buyursalar, shoyadki, rishtayi nazma chekilsa, biz-u sizdin bir xotirayi mustaqbala qolurdi” [Behbudiy, 1909].

Ko‘chirmadan Behbudiyning o‘z davrining shoir va yozuvchilari bilan yaxshi aloqada ekanligi ham ma’lum bo‘ladi. Uning muharrirligida chop etilgan “Samarqand” gazetasi, keyinchalik “Oyina” jurnalida adabiyotga keng o‘rin berilgan.

Bugungi dorilamon kunlarda “Adabiyot yashasa – millat yashar” degan fikr ko‘pchilikning tiliga tushib, diliga jo bo‘lib, ixlosmand kitobxonlar safini kengaytirmoqda. XX asr boshlarida esa yosh adiblarni munosib tarbiyalab, ularning qo‘lidagi qalamni charxlash, adabiy asarlar yaratib, ular orqali o‘zlikni anglashga va oqibat xalqni ma’rifatga, ma’rifat vositasida esa hurriyatga chorlash jadidlarning ezgu orzusi edi.

Adabiyotshunoslar Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub “Padarkush” pyesasini jadid dramaturgiyasining dastlabki asari sifatida qabul qilishdi. Mazkur drama va uning sahnaga qo‘yilishi, odamlar ongiga ta’siri, uning tarixiy ahamiyati borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi [Saidov, 2025b].

Behbudiy hikoya bilan dramani quyidagicha farqlaydi: “Hikoyat va yoinki

nasihat kitoblarinda ba'zi bir hodisa bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib (ta'sirlanib – H.S.) lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur" [Behbudiy, 1914d].

Demak, sahnada qo'yiladigan asarning ta'siri eshitgandan (o'sha paytda o'qishni bilmaganlar savodi borlardan eshishdan) ko'ra ko'proq ta'sirga egaligi uchun ham mazkur janrga murojaat qilganligi ayonlashadi.

Mazkur tragediya va uning sahnaga qo'yilishi, odamlar ongiga ta'siri, uning tarixiy ahamiyati borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, M.Solihov, S.Qosimov, N.Karimov, B.Do'stqorayev va boshqa olimlar mazkur asarning ahamiyati haqida maqolalar yozdilar. Tadqiqotchi Sh.Rizayev esa jadid dramasi bo'yicha alohida izlanishlar olib bordi. Biz ana shu tadqiqotchilardan biri, atoqli olim Naim Karimovning xulosasi bilan tahlilni boshlamoqchimiz:

"Padarkush" munosabati bilan yozilgan maqolalarning birida asarning hayotda ro'y bergan real hodisa ta'sirida yozilgani aytiladi. Bu fikrning haqiqatga qanchalik zid ekanidan qat'i nazar, XX asr boshlarida o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor bermagan otalar ham, yoshlik yillari takaslang, ishyoqmas, maishatparast boyvuchchalar davrasida kechgan bolalar ham oz bo'lmagan. Behbudiy "Padarkush"da nafaqat shunday otalar, balki shunday farzandlarning hayoti ham fojia bilan tugashi mumkinligini ko'rsatib, ularning har ikkalasini va, umuman, XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatini ogohlantirishga intilgan. Shu ogohlantiruvchi pafos, jadidchilikning tub mohiyatini ochuvchi ma'rifatparvarlik g'oyasi asarning katta ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini belgilab beradi hamda uning o'sha davrning eng muhim va dolzarb mavzusiga bag'ishlanganini ko'rsatadi" [Karimov, 2011].

Biz akademik olimning fikrlarga qo'shilgan holda dastlab bir mavhumlikka qisman oydinlik kiritish niyatidamiz. U ham bo'lsa, asarning real hodisaga asoslangan yoki asoslanmaganligi borasidadir. Birinchidan, "Samarqand" gazetasidan olingan quyidagi misolimiz bunday voqealar hayotda uchrab turganligini ko'rsatadi. Muharriri va noshiri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lgan "Samarqand" gazetasida 1913-yili quyidagi yangilik chop etiladi:

"5 avgustda Yangi Chorsu mahallasidaki choyxonada Abdulfattoh boybachchani noma'lum kishilar tafangcha ila otub qochubdurlar. Maqtul (qatl etilgan – H. S.) otasidan qolgan ko'b mollarni safohat (ablahlik – H.S.) yo'lida sarf qilub, yomon odamlar ila qo'shulushub yurgan ekanki, yomon rafiqlari bukun o'zining boshig'a balo bo'libdi.

Idora:

Agarda otasi o'qutsa edi, bolasi balo bo'lmas edi" [Behbudiy, 1913d].

Yangilik odatiy emas, ya'ni bunday voqea-hodisa har kuni sodir etilmaydi. Lekin es-hushi joyida bo'lgan kishini o'ylashga, fikrlashga majbur qiladi. Voqea jo'n emas, undan jamiyatdagi ahvolni aniqlash, uning kelajagini taxminlash mumkin. Shunday bo'lsa-da, tahririyat fojيانing asosini o'qimagan avlod ahvolini ko'rsatishga intiladi – "Agarda otasi o'qutsa edi, bolasi balo bo'lmas edi".

Tragediyaning to'liq nomini yodga olamiz: "Padarkush yoxud o'qumagan bolaning holi". Berilgan yangilik va tahririyat izohidan o'qimagan bolaning nafaqat

o'z umriga ham zomin bo'lishi, balki birovga zahmat yetkazishi, demakki, jamiyatga, uning kelajagiga daxl qilishi anglashiladi.

Yangilikka asos bo'lgan bu hodisa tipiklashgan voqealar sirasiga kirmasa-da, baribir hayotda sodir bo'lgan. Yuqorida "Samarqand" gazetasidan keltirilgan yangilik fikrimizga misol bo'la oladi.

Ikkinchidan va fikrimizcha, asosiysi, "Padarkush" asari mohiyatida katta tarixiy haqiqat aytilgan. Avvalo, dramada buyuk Amir Temur qurgan saltanatning parchalanishi Mirzo Ulug'bekning qatli bilan bog'liq padarkushlikdan boshlangani timsollar vositasida ta'kidlanadi.

"Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bewatan va bandi qilgon tarbiyasizlik va jaholatdur: bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi, natijasidir... asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan" ("Padarkush" asaridan).

Ilmsizlik, tarbiyasizlik yoki ilm, taraqqiy Mahmudxo'ja Behbudiy tasavvurida juda keng tushunchalar. Birinchilarning zamirida rivojlanishdan to'xtagan saltanat fojiasi sabablari, ilm, taraqqiy deganda esa hurriyatga eltadigan yo'l, ozodlik g'oyasi yashirin.

"Padarkush"ga qaytamiz. Otasiga qo'l ko'targan farzand tarbiyasi hisoblanadimi? Har qanday vaziyatda ham otaga qo'l ko'tarilmaydi! Kimlar asir va zabun bo'ldi? Islom davlatlari, jumladan Turon... Turonning xonliklarga bo'linishlari, birodarkushliklar, ilm-ma'rifat asosida rivojlanish o'rniga kibrga, aysh-u ishratga berilishlar... Keling parchalanish sabablari haqida va ushbu drama yaratilganiga qadar aytilgan, ya'ni Behbudiy xulosasiga quloq tutamiz.

"Ta'rix deyrki, bir zamon keldiki, ulamo va umaroyi islom jubun va tanbal, ayshi beparvo, digar tarafdin bir-birlari ila muxolif bo'ldilar. Ta'lim va tadrisi ulamoyi din lodonlar majlisini tarjih (ustun – H.S.) etdilar. Umaro va salotini islom nohaq yerg'a yuz minglab ahli islom qonini to'kub, taraf-taraf bo'ldilar. Ulamo bo'lsa umaro nonig'a va maoshig'a ko'z tikib, muqobillarining takfirilariga qadar ilgari ketdilar. Xusumati mazhabiy va ta'sib ilmiyyag'a ahamiyat berdilarki, nasroniyat olamidaki va papaliq zamonindaki ixtiloflarga monand nizolar olami islomni parchalanmoqig'a sababiyat berdi" [Behbudiy, 1908b].

"Padarkush"ni shu fikrlarni muntazam takrorlab yurgan inson sifatida mutolaa qilsak asardan har birimiz o'zimizga mos ramzlarni topa olamiz. Masalan, padarkush atamasining o'zi yurtimiz tarixidagi ulkan fojiani eslatadi. Behbudiy dramani nega "Padarkush yoxud buyuk saltanat fojiasi" deya nomlanadi? Mustamlakachi senzurasida bunday asarni chop ettirmasligi aniq edi. Hatto, pyesani senzuradan o'tkazolmay ikki yil sarson bo'lgach, 1812-yili ruslarning fransuzlar ustidan Borodino jangida g'alaba qozonganligining 100 yilligiga "bag'ishlagan"idan keyingina ruxsat olgani fikrimizga asosdir. Qolaversa, buyuk saltanat fojiasi haqida yozilsa, jadidchilik harakatining maqsadi ayonlashib, uning namoyandalari avvalroq qatag'onga uchrashi muqarrar edi. Shu bois jadidlar yaratgan asarlarda asosiy fikr ramzlar vositasida aytishga harakat qilinadi.

Ramzlar "Padarkush" asarida yetarli. Masalan, "3 parda, 4 manzarali, milliy

birinchi fojia". Muallif "milliy birinchi fojia" deya faqat asarning dastlabkisi ekanligini ta'kidlayapti, desak Behbudiyga munosib baho bermagan bo'lamiz. Bu gapni "birinchi milliy fojiamiz" yoki "milliy fojiamizning birinchi bosqichi", deya o'qisak ma'no yanada kengayadi.

Asardagi Boyning millat ziyolisiga munosabati Mirzo Ulug'bek qatli va hatto, undan avvalroq Amir Temur barpo etgan saltanatni jaholat sabab bo'lib olgan hukmdorlar fojiasining ramzi, degan fikrdamiz. Bugungi kunda Mirzo Ulug'bekni shaxsan uning o'g'li qatl etmaganligi aniqlangan bo'lsa-da, uning ishtiroki, roziligi sabab u padarkush sifatida tarixda qoldi [Muhammad, v.n.].

Asardagi Ziyoli ilm zarurati haqida gapirayotganda Boy xizmatkoriga chilim keltirishni buyuradi. Chilim tutatish, bugungi chekuvchilarning ta'biricha, "fikrlayotganda miyada paydo bo'lgan tugunni yechish" emas, balki "nega aynan men o'ylashim kerak", deya muammoni unutishga, muammoni yechishdan qochishga intilishdir.

"Padarkush" asaridagi Ziyoli Behbudiyning o'zi yoki safdosh jadidlar obrazidir. Shu bois u boy(lar)ning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qilaveradi: "...bahsning ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to'g'risidan sizg'a bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o'qitmoqqa sa'y qilsalar".

Ziyoli ilm va hunarsiz millatning ahvoli kundan-kunga xor bo'lishi, yer va mulksiz qolishi oqibatida axloqi buzilishi, dini zaiflashishini tushuntiradi. Buning uchun "olimi diniy" bilan birga, albatta, "olimi zamoniy"larni tayyorlash, buning uchun mablag'ni ayamasdan, yoshlarning savodini chiqarib, rivojlangan davlatlarda o'qitish zarurligini ta'kidlaydi. Bu sahna ham ramzlarga to'la. Chilim chekib, Ziyolining so'zlarini eshitgan boy avval mudraydi, keyin uxlab qoladi. Mudrash – masala mohiyatiga kirishdan qochish, xurрак otib uxlash esa xastalik belgisidir, xossatan, rivojlanmaslikka rag'bat, mutelikka rozilikdir.

Farzandini o'qitishni istamagan Boy obrazi yurt taraqqiyotini o'ylamaydigan va tanazzulga eltadigan hukmdorlar, faqat o'zi haqida qayg'uradigan boylar ramzidir. Shu bois asarning birinchi pardasi Ziyolining xudoga nolasi bilan tugatilishi bejiz emas: "Ilohi, Xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz – turkistonlilarga rahming kelsun!..(Ro'moli ila ko'z yoshini artib chiqib ketar)".

Yurt, millat manfaati nima ekanligini tushunmaydigan, topgan mablag'ini faqat o'zi uchun sarflayotgan puldorlar ahvolidan yig'layotgan ziyolini tasavvur qilyapsizmi? Ziyoli obrazini bugunga ko'chirangiz millat ravnaqi yo'lida izlanayotgan olimlar, jurnalistlar kabi oydinlar tushuniladi. Ular ham hukumat va yurt boylariga millat bolalarini o'qitish, ilm-fanni rivojlantirish borasida murojaat qilishda davom etmoqdalar. Albatta, bugun ozodmiz, lekin boshqalarga mute'bo'lib qolishning harbiy qurol ishlatilmaydigan yo'llari ko'payib ketganligini, ya'ni zamonaviy "usul"lari yaratilganligini ham nazardan qochirmaslik ziyolilar zimmasidagi vazifadir.

"Padarkush" asari nafaqat zamonasining, balki rivojlanishdan to'xtagan, ma'rifat oyoqosti qilingan har qanday davr va jamiyat uchun ogohlantirish qo'ng'irog'i bo'lib qolaveradi.

Chor Rossiyasidagi 1917-yil fevral voqeasi (Nikolay IIning taxtdan qulashi)dan keyin jadidlar ma'rifiy "libos"larini yechib siyosiy harakatlarini boshladilar. Afsuski, hammasi jadidlar kutganidek bo'lmadi – millat sifatida shakllanmagan qavm bo'linib ketdi. Bu borada Behbudiy bir viloyatda kechgan jarayonni shunday tasvirlaydi: "Samarqand xalqi ikkig'a bo'lindi. Bilkulli ikkiga emas, yuzg'a bo'lunib, xalqning ko'ngli sovub, ba'zilarning so'z va harakatidan nafratlanib, tarqalib ketdilar". Hurriyatni asrab qolish uchun Behbudiy zor qaqshab xalqqa murojaat qiladi. Uni o'qib iztirobga tushmaslikning imkoni yo'qligini anglaysiz: "Aziz hamshaharlarim, mo'tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo'lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradagi nafratlarni tashlab, xudoning bergan hurriyat ne'matidan naf'ılanmoq harakatida bo'lmoq kerak va alar bizning bu harakatsizligimiz bizdan hurriyatni ketkurib yana boshqalarg'a bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila keyin ketarmiz va bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizga rahmat o'rniga la'nat o'qurlar" [Behbudiy, 1917a].

Turkiston aholisi o'rtasidagi bo'linish oqibatini esa "Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat" maqolasida shunday izohlaydi: "Ongli qozoqlar o'ylasinlar, tarixga qarasinlar, ziyoli qozoqlar, Ovruponing ixtilof solib, millatlarni ajratmoq siyosatig'a va ikki yuzligig'a qarasunlar edi. Birlashg'on Turkiston xalqining bo'lunmoqig'a o'zimiz sabab bo'lmasak edi. Barcha ixtilofchilar va boshqalar-da, albatta, zarar ko'rarlar va alar ila barobar tatarlar-da, biz-da, mundan zarar ko'urmiz va ixtilofimizning jazosini tortarmiz. U kunlarimizga yig'larmiz, ammo foyda etmas" [Behbudiy, 1918].

Faqat ma'rifiy harakatni (ozodlikni emas) maqsad qilgan inson shu gaplarni matbuot orqali ayta olarmidi?

"Turkiston muxtoriyati" sarlavhali maqolasida esa 1917-yili Qo'qonda e'lon qilingan Turkiston muxtoriyatiga munosabati, ishtirokidan faxrlanishi uning siyosiy arbob bo'lganligini anglatadi: "27-noyabrda Ho'qandda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon siyezdida e'lon qilindi. Muborak va xabarli bo'lsin! Kamina ham majlisda bo'lish uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" [Behbudiy, 1917b].

Behbudiyning siyosiy arbob bo'lganligi uning halok bo'lishi e'lon qilingan (hokimiyatga o'rnashgan bolsheviklar uni qoralashga ulgurmagan) payti yetti kishilik nufuzli komissiya xulosasida ham e'tirof etilgan: "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy muntazam bir tahsil ko'rmadigi holda xidmat mashqining o'tig'a chiday olmasdan, o'zining sabot va g'ayratiga tayanib butun xidmatni o'z bo'ynig'a yukladi. Mahmudxo'ja yurtning ehtiyojiga qarab muharrirda bo'ldi, muallimda bo'ldi, gazetchilik qildi, maktab kitoblari yozdi, tiyotrehilik qildi, siyosiy ishlarg'a ishladi, xalqqa siyosiy fikr berdi, xalqning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini isloh qilmoq uchun iqtisodiy va ijtimoiy olim bo'lib xalqqa fikr tarqatdi. Fiqhi islom, hadis va tafsir bilan shug'ullanib suylayturg'on va yozadurg'on narsalarini shar'iy dalillar bilan isbot qildi" [Ayniy, 1920].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning adabiyot, matbuot sohasi deysizmi,

maktab-u oliy o'quv yurtlari ta'limi islohi, Turkiston tarixini yozishning zarurati, ko'p tillarni bilish kabi millatni taraqqiyotga boshlaydigan barcha masalalarda o'z qarashiga egaligi va uni asoslay bilishi, amali ("Haq olinur, berilmas"), o'z ortidan xalqni boshlay olishi va bu yo'lda jonini qurbon qilishdan toymasligi uning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida ta'kidlangan "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi" ekanligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2020-yil 24-yanvar). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti* da. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>.
2. Ayniy, S. (1920-yil 8-aprel). Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimayi holi. *"Mehnatkashlar tovushi"* gazetasi.
3. Behbudiy, M. (1908a-yil 30-noyabr). Ta'rix va jug'rofiya. *Turkiston viloyatining gazetasi*.
4. Behbudiy, M. (1908b-yil 18-dekabr). Tavzeh. *Turkiston viloyatining gazetasi*.
5. Behbudiy, M. (1909-yil 7-mart). Oq yelpog'ichli chinli xotun. *Turkiston viloyatining gazetasi*.
6. Behbudiy, M. (1913a-yil 30-iyul). Millatlar qanday taraqqiy etarlar?. *Samarqand gazetasi*.
7. Behbudiy, M. (1913b-yil 16-avgust). Na uchun iltifot etmaydurlar?. *Samarqand gazetasi*.
8. Behbudiy, M. (1913d-yil 16-avgust). Xo'jandda. *Samarqand gazetasi*.
9. Behbudiy, M. (1914a). Bizni hollar va ishlar. *"Oyina" jurnali*, 13.
10. Behbudiy, M. (1914b). Qasdi safar. *"Oyina" jurnali*, 31.
11. Behbudiy, M. (1914d). Tiyotr nadur. *"Oyina" jurnali*, 29.
12. Behbudiy, M. (1917a-yil 12-iyun). Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz. *"Ulug' Turkiston" gazetasi*.
13. Behbudiy, M. (1917b-yil 19-dekabr). Turkiston muxtoriyati. *"Hurriyat" gazetasi*.
14. Behbudiy, M. (1918-yil 26-yanvar). Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat. *"Hurriyat" gazetasi*.
15. Karimov, N. (2011). *Mahmudxo'ja Behbudiy*. Toshkent: O'zbekiston.
16. Muhammad, A. (v.n.). Mirzo Ulug'bek dahriy bo'lmagan!. *e-tarix.uz* da. <https://e-tarix.uz/maqolalar/628-maqola.html>.
17. Muin, H. (1923). Mahmudxo'ja Behbudiy. *"Uchqun" jurnali*, 1.
18. Saidov, H. (2000). *Ma'rifati libosidagi ozodlik*. Toshkent: Ma'naviyat.
19. Saidov, H. (2024-yil 7-sentabr). Buyuk Behbudiy fenomeni: Mahmudxo'ja va jadidchilik harakati. *"Ishonch" gazetasi*, 112(5020), 4.
20. Saidov, H. (2025a-yil 11-aprel). Buyuk donishmand, yetuk siyosiy arbob!. *"Adolat" ijtimoiy-siyosiy gazetasi*, 14(1531), 5.
21. Saidov, H. (2025b). "Padarkush" – ogohlik qo'ng'irog'i edi. *"Guliston" jurnali*, 1, 14-15.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, S. (2020, January 24). Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. In *the official website of the President of the Republic of Uzbekistan*. <https://president.uz/en/lists/view/3324>
2. Aini, S. (1920, April 8). *A brief biography of the Revered Mahmudkhoja Behbudi. Newspaper of 'The Voice of Workers'*.
3. Behbudi, M. (1908a, November 30). History and geography. *Newspaper of Turkistan Province*.
4. Behbudi, M. (1908b, December 18). Explanation. *Newspaper of Turkistan Province*.
5. Behbudi, M. (1909, March 7). The Chinese woman with a white fan. *Newspaper of Turkistan Province*.
6. Behbudi, M. (1913a, July 30). How do nations progress?. *Newspaper of Samarkand*.
7. Behbudi, M. (1913b, August 16). Why don't they show respect?. *Newspaper of Samarkand*.

8. Behbudi, M. (1913c, August 16). In Khujand. *Newspaper of Samarkand*.
9. Behbudi, M. (1914a). Our conditions and affairs. *Journal of 'Oyina'*, 13.
10. Behbudi, M. (1914b). Purpose of the journey. *Journal of 'Oyina'*, 31.
11. Behbudi, M. (1914c). What is theatre?. *Journal of 'Oyina'*, 29.
12. Behbudi, M. (1917a, December 19). Autonomy of Turkistan. *Newspaper of 'Freedom'*.
13. Behbudi, M. (1917b, June 12). A sincere appeal to the honorable Samarkand people. *Newspaper of 'Great Turkistan'*.
14. Behbudi, M. (1918, January 26). An Open Letter to Our Kazakh Brothers. *Newspaper of 'Freedom'*.
15. Karimov, N. (2011). *Mahmudkhoja Behbudi*. Tashkent: Uzbekistan.
16. Muhammad, A. (n.d.). Mirzo Ulugbek was not an atheist! In *e-tarix.uz*. <https://e-tarix.uz/maqolalar/628-maqola.html>.
17. Muin, H. (1923). Mahmudkhoja Behbudi. *Journal of 'Spark'*, 1.
18. Saidov, H. (2000). *Freedom in the garb of enlightenment*. Tashkent: Spirituality.
19. Saidov, H. (2024, September 7). The Great Behbudi Phenomenon: Mahmudkhoja and the Jadid Movement. *Newspaper of 'Trust'*, 112(5020), 4.
20. Saidov, H. (2025a, April 11). A great thinker and mature political figure!. *Socio-Political Newspaper of 'Justice'*, 14(1531), 5.
21. Saidov, H. (2025b). "Patricide" – A call for awareness. *Journal of Gulistan*, 1, 14-15.